

## YANGI O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYA VA UNDA XOTIN-QIZLAR TA‘LIM-TARBIYA VA ISTIQBOLI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831289>

**Aziza Samarova**

*Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

O‘zbekiston xalqi juda uzoq ming yillik tarix yo‘lini bosib o‘tib, ko‘plab urushlar, bosqinlar, iqtisodiy-siyosiy tanazzullarga qaramasdan, ijtimoiy-ma‘naviy yuksaklik sari yo‘l yurdi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, insoniyat bir joyda to‘xtab qolmasdan, doimo nimadir yaratishga, yangilik qilishga intilib kelgan. Ayniqsa, ilm olish, izlanish zarurati, har doim xalq va jamiyatning markaziy e‘tiborida turgan. O‘z navbatida, hech qaysi mamlakat ta‘limsiz, bilimsiz o‘tib rivojlanmaydi ham. Bugun Yaponiya, Singapur, Germaniya va boshqa davlatlarning bu boradagi tajribalari jahon hamjamiyati tomonidan ta‘lim olingan. Mazkur mamlakatlar davlat byudjetining katta qismini ta‘limga qaratganligini bilishimiz mumkin.

2017-yil 22-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatiga oid farmonni imzoladi. O‘zbekiston Prezidentining «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi. Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi va uning hududiy bo‘linmalari rahbarlari eng avvalo:

— og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarni o‘z vaqtida aniqlash, ular bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni olib borish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash;

— xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, ular o‘rtasida oilaviy va xususiy tadbirkorlikni, hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy choralarni amalga oshirish;

— xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, shu jumladan, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga shaxsan javobgardir<sup>25</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. 2019- yil martda imzolangan mazkur huquqda Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar

<sup>25</sup> *Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning-22 dekabr kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolariga yo‘llagan murojaatnomasi. 02.01.2018.*

tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmog'da. Xususan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi, shuningdek, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'ris etildi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti laureatlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi<sup>26</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4-yanvar 2020-yil 3-son qarori xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish belgilangan<sup>27</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyundagi qarori bilan xotin-qizlar uchun qo'shimcha grant asosida oliy ta'lim muassasalariga kirish tartibi belgilandi. Respublika oliy ta'lim muassasalariga 2020/2021-o'quv yilida xotin-qizlar uchun jami davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan qo'shimcha 4 foizli davlat granti 940 ta kvota, 2021/2022-o'quv yilida davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan qo'shimcha 2 000 ta davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari ajratildi<sup>28</sup>.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Shavkat Mirziyoyevning 5020-son qarori 5-mart 2021-yil imzolandi. <sup>29</sup>Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid ishlar amalga oshirgan.

<sup>26</sup> PQ-4235-son. 07.03.2019. Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash.

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 04.01.2020. 3-son.

<sup>28</sup> Xotin-qizlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash, kambag'alikni qisqartirish omilidir. Aholining deyarli yarmini tashkil etadigan *xotin-qizlar masalasi*. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyundagi qarori.

<sup>29</sup> PQ-5020-son. 05.03.2021. Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha qaror.

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish belgilandi.

Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil mart oyida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan yig'ilishda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash bo'yicha o'tkazilayotgan yig'ilishda Prezident xotin-qizlarga ajratiladigan uy-joylardan tortib, homiladorlik nafaqasini to'lab berish imkoniyatlari yaratilishigacha ta'kidlab o'tgan. Shavkat Mirziyoyev bugungi yig'ilishda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash bo'yicha eng dolzarb vazifalar belgilandi.<sup>30</sup>

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda ham ta'lim-tarbiyaga e'tibor juda katta. Olib borilayotgan islohotlar zamirida doimiy rivojlanish, aholi ijtimoiy hayotini yaxshilash nazarda tutilgan. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar, yangilik va o'zgarishlar xalq manfaatlarini, ustunliklari uchun olib borildi. Ta'kidlash kerakki, olib borilayotgan islohotlar, yangiliklar, tartib-qoidalar барчаси O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasi asosida bormoqda.<sup>31</sup>

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan taqdim etilgan 2023-yil 10-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarori (keyingi o'rinlarda — Qonunchilik palatasi qarori) quyidagilarni nazarda tutuvchi o'n bir bandedan va ilovadan iborat. Yangi O'zbekistonda hozirgi kunga xotin-qizlarga e'tibor juda katta. Sababi shuki, oilada ayollar, xotin-qizlar savodli, bilimli bo'lsa, kelajak avlod ham shu o'rinda ziyoli bo'lib yetishadi. Bu o'rinda ma'lumot o'rnida quyida keltirilgan ma'lumotlar misol o'la oladi. Konstitutsiyada o'zgartirish kiritish bo'yicha loyiha inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan ikkinchi bo'limida (19 — 64-moddalar) inson huquq va erkinliklarini ta'minlash — davlatning oliy maqsadi etib belgilanmoqda. Gender tenglik (58-modda) kabi yangi konstitutsiyaviy huquqlar kiritilmoqda. Fuqarolarga pensiya tayinlanishida I guruh nogironiga yoki 18 yoshgacha

<sup>30</sup> PF-81-son. 1 map. 2022 г. — *Shavkat Mirziyoyev* bugungi yig'ilishda *xotin-qizlarni* har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash.

<sup>31</sup> KSQ-4-сон 13.03.2023. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan taqdim etilgan 2023-yil 10-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zgarishlar

bo'lgan nogiron bolaga, shuningdek o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanadi. Oila kodeksining 116-moddasida, voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar mazkur kodeksning 79-moddasiga asosan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkinligi belgilangan. Bunda bolalar otada bo'lsa aliment to'lash to'g'risidagi sud qarorini bajarmayotgan ona onalik huquqidan, agar bolalar onada bo'lsa aliment to'lashdan bosh tortayotgan ota otalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ayrim imtiyozlar: Qonunchilikka ko'ra, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat bog'chalari va maktablarga navbatga qo'yilmasdan joylashtiriladi. Ularga texnikum, kollej, akademik lisey yoki OTMda o'qiyotganda har o'quv yilida 1 marotaba o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar (kitoblar) xarid qilish uchun BHMning 5 baravari (1 500 000 so'm) miqdorida subsidiya beriladi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar o'qishni davlat OTMlarida davom ettirganda ularga stipendiya 50 foizga oshirilgan holda to'lanadi. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 12 moddasida, bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo'lsa — ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda umumiy belgilangan 55 yoshdan emas, boshqalarga qaraganda imtiyozliroq ya'ni 50 yoshdan pensiyaga chiqishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 145-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda, «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning bir nechta yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og'ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta'mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta'mirlash ishlari olib borilishi ko'rsatilgan. Nizomga asosan, xar bir uy-joyi ta'mirlash ishlariga «Ayollar daftari» jamg'armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari (9 000 000 so'm)gacha miqdorda mablag' ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur yangiliklar aholi xotin-qizlar ijtimoiy hayotini yanada yaxshilashga, o'z ustida ishlash imkoniyatini oshirishga xizmat qilishi lozim. Aholi qatlami hayotini yaxshilash, kelajak hayotini iqtisodini oshishiga imkon beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.,2022.
2. *Shavkat* Mirziyoyev 2017-yilning-22 dekabr kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga yo'llagan murojaatnomasi. 02.01.2018.
3. *PQ-4235-son. 07.03.2019. Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash.*

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 04.01.2020. 3-son.
5. Xotin-qizlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash, kambag'alikni qisqartirish omilidir. Aholining deyarli yarmini tashkil etadigan *xotin-qizlar masalasi*. Vazirlar Mahkamasining **2020 yil** 23 iyundagi qarori.
6. PQ-5020-son. 05.03.2021. Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha qaror.
7. PF-81-son. 1 map. 2022 г. — *Shavkat Mirziyoyev* bugungi yig'ilishda *xotin-qizlarni* har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash.
8. PQ-87-son. 07.03.2022. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
9. KSQ-4-сон 13.03.2023. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan taqdim etilgan 2023-yil 10-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'zgarishlar.